

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MANTIQUIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
JIHATLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR****Parmonova Dilafruz Orzikulovna.**Samarqand Shahar 124- sonli Davlat maktabgacha
ta'lim tashkiloti metodisti,<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025029>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mantiqiy operatsiyalar — tahlil, sintez, taqqoslash va umumlashtirishning pedagogik mexanizmlari hamda xalqaro ta'lim tajribasidagi zamonaviy yondashuvlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, tahlil, sintez, umumlashtirish, boshlang'ich ta'lim, kognitiv rivojlanish, xalqaro tajriba.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchilarga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra, ularda mustaqil va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa qilib qo'yimoqda. Boshlang'ich sinf davri (6-10 yosh) bolaning kognitiv rivojlanishida «konkret operatsiyalar» bosqichidan «rasmiy operatsiyalar» bosqichiga o'tish davri hisoblanadi.

Mantiqiy tafakkur — bu voqelikni tushunchalar, hukmlar va xulosalar orqali aks ettiruvchi aqliy faoliyat bo'lib, uning asosi tahlil, sintez, umumlashtirish va klassifikatsiya kabi operatsiyalardan iborat. Mazkur maqolaning maqsadi — boshlang'ich ta'limda ushbu operatsiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillarini ochib berishdir.

Metodlar

Qiyosiy tahlil: J Boshlang'ich sinf o'quvchisining mantiqiy tafakkuri qanday shakllanishini tushunish uchun ikki buyuk olim - Jan Piaje va Lev Vigotskiyning qarashlarini o'zaro uyg'unlikda tasavvur qilish lozim. Ularning yondashuvlari bir qarashda turlicha ko'rinsa-da, aslida bolaning aqliy kamolotini ikki xil tomondan yoritib beradi.

Jan Piaje bolaning rivojlanishini tabiatning o'ziga xos qonuniyati sifatida talqin etgan. Uning fikricha, mantiqiy fikrlash bolaning ichki ehtiyoji va ob'ektlar bilan bevosita muloqoti natijasida o'z-o'zidan pishib yetiladi. Bola go'yoki tabiat qo'ynidagi kichik tadqiqotchi kabi narsalarni bir-biriga solishtiradi, guruhlarga ajratadi va ularning hajmi yoki miqdori haqida xulosalar chiqaradi. Masalan, bola bir idishdagi suv boshqa shakldagi idishga quyilganda uning miqdori o'zgarmasligini anglab yetishi uchun uning aqliy apparati ichki tomondan ma'lum bir tayyorgarlik bosqichidan o'tishi kerak. Piaje yondashuvida ta'lim bolaning biologik rivojlanish darajasidan o'zib ketolmaydi, aksincha unga moslashishi shart.

Lev Vigotskiy esa mantiqiy tafakkurning manbasini tashqi olamda, ya'ni ijtimoiy muloqotda ko'rgan. Uning talqinicha, mantiqiy operatsiyalar bolaga kattalar tomonidan til va madaniyat orqali meros bo'lib o'tadi. Bola o'zi mustaqil bajara olmaydigan mantiqiy vazifani avval o'qituvchisi yoki ota-onasi bilan birgalikda, muloqot jarayonida amalga oshiradi. Bu jarayonni u «yaqin rivojlanish sohasi» deb atagan. Vaqt o'tishi bilan bu tashqi hamkorlik bolaning ichki nutqiga va shaxsiy fikrlash tarziga aylanadi. Vigotskiy uchun ta'lim shunchaki o'sib kelayotgan bolaga moslashish emas, balki uni o'z ortidan yetaklovchi va rivojlantiruvchi asosiy kuchdir.



Zamonaviy pedagogika bu ikki qarashni o'zaro birlashtiradi. Bugungi yondashuvga ko'ra, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun bolaga ham mustaqil izlanish imkoniyatini berish (Piaje bo'yicha), ham uni tizimli muloqot va yo'naltiruvchi savollar orqali qo'llab-quvvatlash (Vigotskiy bo'yicha) zarur. Hozirgi darslarda mantiqiy operatsiyalar - tahlil qilish, bir butunni bo'laklarga ajratish va ularni qayta birlashtirib umumiy xulosa chiqarish ko'nikmalari aynan shu ikki xil mexanizm asosida shakllantiriladi.

Mantiqiy tafakkur - bu bolaning ichki imkoniyatlari bilan tashqi ijtimoiy ta'sirning o'zaro uchrashish nuqtasidir. Bola narsalarni o'z qo'li bilan ushlab ko'rib tahlil qilishni o'rgansa, so'zlar va tushunchalar yordamida bu tahlilni yuqori bosqichga, ya'ni mavhum mantiq darajasiga olib chiqadi.

Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga tizimli yondashuv shuni anglatadiki, mantiqiy operatsiyalar - tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va klassifikatsiya - bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro zanjirsimon bog'langan yaxlit jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Tizimli yondashuvda har bir operatsiya keyingisi uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Masalan, o'quvchi biror muammoni hal qilishda avval uni tarkibiy qismlarga ajratadi (tahlil), so'ngra ushbu qismlarning o'zaro bog'liqligini o'rganib, ularni yangi tartibda birlashtiradi (sintez). Bu jarayon ob'ektlarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash (taqqoslash) orqali boyitiladi va yakunda muhim belgilarni ajratib ko'rsatish (umumlashtirish) bilan yakunlanadi. Tadqiqotimizda ushbu operatsiyalarni tizimli rivojlantirish o'quvchining aqliy faoliyatini tartibga solishi va kognitiv yuklamani to'g'ri taqsimlashga yordam berishi isbotlangan. Shunday qilib, mantiqiy operatsiyalarni tizim sifatida o'rganish o'quvchida tarqoq bilimlarni emas, balki yaxlit mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Jahon ta'lim tajribasida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha Finlyandiya va Singapur yondashuvlari o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatlarning tajribasi bizning milliy metodikamizni takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Finlyandiya ta'lim tizimida asosiy urg'u «fenomen-ta'lim» yondashuviga beriladi. Bunda o'quvchilar aniq bir fanni emas, balki hayotiy hodisa yoki muammoni mantiqiy tahlil qiladilar. Fin metodikasi o'quvchini savol berishga, ma'lumotning ishonchliligini tekshirishga va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Mantiq bu yerda quruq formulalar majmuasi emas, balki real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qurolidir.

Singapur ta'lim tizimi esa mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda «ko'rgazmali-obrazli-mavhum» modelidan keng foydalanadi. Ayniqsa, mantiqiy topshiriqlarni vizuallashtirish va matematik modellar orqali yechish metodikasi o'quvchilarda algoritmlarni tushunish va tizimli fikrlashni yuksak darajaga ko'taradi. Singapur tajribasi o'quvchini muammoni qismlarga ajratish va eng samarali yechim yo'lini mantiqiy tanlashga yo'naltiradi.

Finlyandiyaning hayotiy-tanqidiy yondashuvi va Singapurning strukturaviy-mantiqiy modellari uyg'unligi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng samarali metodik tizimni yaratishga asos bo'ladi.

Natijalar

Mantiqiy operatsiyalarning boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi namoyon bo'lish xususiyatlari quyidagicha klassifikatsiya qilindi:



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tahlil va sintez operatsiyalarining shakllanishi ularning kognitiv rivojlanishidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon bolaning olamni anglashidagi tartibsizlikdan mantiqiy izchillikka o'tishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf davrida tahlil qilish jarayoni ko'pincha amaliy va ko'rgazmali xarakterga ega bo'ladi. Bola ob'ektni qismlarga ajratar ekan, birinchi navbatda uning tashqi, ya'ni vizual belgilariga (rangi, shakli, kattaligi) tayanadi. Masalan, geometrik shakllarni tahlil qilishda bola ularni tomonlarining soni yoki rangi bo'yicha ajratadi.

Bu bosqichda tahlil «bo'laklash» ko'rinishida bo'lib, o'quvchi narsaning har bir qismini alohida ko'radi. O'qituvchining vazifasi esa bolani shunchaki qismlarni sanashdan, shu qismlarning butun ob'ektda qanday vazifa bajarishini anglashga yo'naltirishdir. Vaqt o'tishi bilan bola nafaqat ko'z bilan ko'rib turgan narsalarini, balki so'zlar va matnlarni ham tarkibiy qismlarga (bo'g'in, tovush, gap bo'laklari) ajratishni o'rganadi.

Sintez -bu tahlil natijasida ajratilgan bo'laklarni mantiqiy bog'liqlik asosida qayta birlashtirib, yangi bir butunlik hosil qilish jarayonidir. Agar tahlil narsani «buzib ko'rish» bo'lsa, sintez uni «qayta qurish» hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun sintez jarayoni tahlildan so'ng keladi. Masalan, o'quvchi o'qigan matnidagi alohida voqealarni tahlil qilgach, ularni mantiqiy ketma-ketlikda birlashtirib, hikoyaning mazmunini yaxlit holda so'zlab beradi. Sintezning eng yuqori ko'rinishi shundaki, bola qismlarni birlashtirganda shunchaki ularning yig'indisini emas, balki ularning o'zaro aloqasidan kelib chiqadigan umumiy ma'noni tushunib yetadi.

Pedagogik jarayonda tahlil va sintez ajralmas egizak operatsiyalar sifatida namoyon bo'ladi. Tahlilsiz sintez - yuzaki va asossiz bo'lsa, sintezsiz tahlil - ma'nosiz va tarqoqdir. O'quvchi biror masalani yechayotganda, uning shartlarini qismlarga ajratadi (tahlil) va bu qismlarni yechim formulasiga birlashtiradi (sintez).

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda tahlil va sintez ko'nikmalarining rivojlanishi bolani elementar idrok qilishdan murakkab nazariy fikrlashga, ya'ni muammolarni tizimli yechishga tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumlashtirish operatsiyasining shakllanishi ularning shunchaki kuzatuvchidan haqiqiy mantiqiy fikrlovchi shaxsga aylanish bosqichidir. Bu jarayon bolaning tafakkurini konkret narsalardan mavhum tushunchalar olamiga olib o'tadi.

Umumlashtirish jarayonida bola o'rganilayotgan predmet yoki hodisalarning ikkinchi darajali va tasodifiy belgilarini chetga surib, ularning barchasi uchun umumiy hamda eng muhim bo'lgan xususiyatlarni bir butunlikka birlashtiradi. Boshlang'ich sinf davrida bu ko'nikma bir necha bosqichda namoyon bo'ladi. Dastlab bola bir guruh predmetlarni ko'rganda, uning diqqati rang yoki shakl kabi ko'zga tashlanadigan tashqi belgilarga chalinadi. Biroq mantiqiy tafakkur rivojlangani sari, o'quvchi predmetlarning rangi yoki material kabi muhim bo'lmagan xususiyatlaridan voz kechib, ularning asosiy vazifasini anglay boshlaydi.

Ushbu operatsiya o'quvchiga fanga oid qoidalarni va qonuniyatlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Masalan, turli xil predmetlarni kuzatish jarayonida ularning nimaligidan qat'i nazar, ularni birlashtirib turuvchi miqdoriy xususiyatlarni ajratib oladi yoki tildagi so'zlarning turli xil bo'lishiga qaramay, ularning ma'nosi va beriladigan so'rog'iga qarab muayyan turkumlarga birlashtiradi. Muhim bo'lmagan belgilardan voz kechish orqali bolaning ongida yaxlit tushunchalar shakllanadi va u endi buyumlarni alohida emas, balki ma'lum bir guruhning bo'lagi sifatida qabul qiladi.

Pedagogik jihatdan qaraganda, umumlashtirish operatsiyasi o'quvchini tarqoq ma'lumotlar ichida adashib qolishdan asraydi va unga dunyoni tizimli, mantiqiy bog'langan yaxlit tasvirlar orqali ko'rishga yordam beradi. Bu ko'nikma takomillashgani sari, bolaning nutqi ham aniqlashib, mulohazalari ilmiy xarakterga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, umumlashtirish mantiqiy tafakkurning yuqori bosqichi sifatida bolada nazariy bilimlar poydevorini quradi.

Muhokama

Pedagogik va psixologik tahlillar shuni isbotlaydiki, inson tafakkurining oliy shakli bo'lgan mantiqiy fikrlash qobiliyati bolada tabiiy o'sish jarayoni sifatida o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Bu jarayon maqsadli yo'naltirilgan pedagogik muhit va tizimli metodik yondashuvni talab etadi. Jan Piaje nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar kognitiv rivojlanishning aniq operatsiyalar bosqichida bo'ladilar. Bu davrda bolaning mantiqiy xulosalari hali mavhum tushunchalarga emas, balki bevosita ko'rib turgan, ushlab ko'radigan yoki his qiladigan aniq predmetlarga bog'langan bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim metodikasida ko'rgazmalilikdan mavhumlikka o'tish tamoyili shunchaki yordamchi vosita emas, balki tafakkur qurilishining fundamental asosi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida aniqlangan muhim jihat shundan iboratki, an'anaviy ta'lim tizimimizda uzoq vaqt davomida reproduktiv yondashuv, ya'ni tayyor axborotni eslab qolish va qayta so'zlab berishga yo'naltirilgan topshiriqlar ustunlik qilib kelgan. Bunday yondashuv bolaning xotirasini kuchaytirsada, uning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini cheklab qo'yadi. Xalqaro ta'lim tajribasi, xususan, rivojlangan mamlakatlar metodikasi bilan qiyoslaganda, bizning darsliklarimizda o'quvchidan faqat faktlarni so'raydigan savollar ko'p uchrashi ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, zamonaviy pedagogik yondashuv o'quvchining aqliy faoliyatini faollashtirish uchun savollar ierarxiyasini o'zgartirishni taqozo etadi. Endilikda ta'lim mazmuni o'quvchiga nima degan savol orqali tayyor bilimni taqdim etishdan, nega va qanday qilib degan savollar orqali muammoning sabab va oqibat aloqalarini qidirishga yo'naltirilishi lozim. Bu usul bolani hodisalarni shunchaki kuzatuvchidan ularning ichki mantiqiy mexanizmlarini tushunuvchi tadqiqotchiga aylantiradi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchiga mantiqiy tayyor qoliqlarni berish emas, balki ularni mustaqil ravishda kashf etish uchun intellektual maydon yaratishdir. Ma'lumotni tahlil qilish, undagi qarama-qarshiliklarni topish va xulosalarni dalillash ko'nikmasi aynan mana shu muloqot va izlanish jarayonida tug'iladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining kelajakda murakkab hayotiy va ilmiy muammolarni mantiqiy izchillik asosida hal qila oladigan shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni shunchaki alohida mashqlar majmuasi emas, balki ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini qamrab oluvchi kompleks pedagogik tizimdir. Olib borilgan nazariy tahlillar va metodik o'rganishlar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, mantiqiy operatsiyalarni rivojlantirish jarayoni faqatgina matematika yoki tabiatshunoslik kabi aniq fanlar doirasida cheklanib qolmasligi lozim. Mantiqiy tafakkur elementlarini darsning barcha bosqichlariga, ya'ni yangi mavzuni tushuntirishdan boshlab, mustahkamlash va nazorat qilish jarayonlarigacha integratsiya qilish talab etiladi. Bu

yondashuv o'quvchida fandan qat'i nazar, axborotni tizimli tahlil qilish va mantiqiy izchillikni saqlash ko'nikmasini doimiy ravishda charxlab boradi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, tahlil va sintez ko'nikmalarini shakllantirishda vizualizatsiya usullaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Xususan, murakkab tushunchalarni vizual modellar, chizmalar va aqliy xaritalar ko'rinishida taqdim etish bolaga axborotlar o'rtasidagi yashirin mantiqiy bog'liqlarni ko'rish imkonini beradi. Aqliy xaritalar o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirib, tarqoq ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, jahon ta'lim maydonida yuqori natijalarga erishgan Singapur va Finlyandiya kabi davlatlarning ilg'or tajribalari mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda boy manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq ushbu tajribalarni ko'r-ko'rona nusxalamasdan, ularni milliy pedagogik sharoitimizga, darsliklarimiz mazmuniga va o'quvchilarimizning mental xususiyatlariga moslashtirish lozim. Xalqaro metodikadagi savol-javob texnikalari va muammoli vaziyatlarni yechish usullarini milliy ta'lim standartlariga tatbiq etish orqali boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, mantiqiy operatsiyalarni tizimli takomillashtirish orqali biz nafaqat bilimli o'quvchini, balki har qanday vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, tahliliy fikrlaydigan va intellektual salohiyati yuqori bo'lgan shaxsni tarbiyalashga erishamiz.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. The Strategy of Development of New Uzbekistan. - Тошкент: Ўзбекистон. 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. Let's live freely and prosperously in New Uzbekistan. - Тошкент: Ўзбекистон. 2023y.
3. The Constitution of the Republic of Uzbekistan. Mukaddima. - Тошкент: Ўзбекистон. 2023
4. Мусулмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. Tashkent: Teacher. 1996.
5. Ergasheva O. N. Abdieva. "The Role of National, Spiritual, and Moral Values in Child Rearing." Prospects for the innovative development of pedagogical science in New Uzbekistan: theory and practice. - Тошкент: 2021.
6. Кенжаев Д.М. Исламские ценности в воззрение джаидов и их концепция духовного реформирования общества. Дисс. Кандидат исторических наук. – Тошкент, 2008.
7. Муртабаева А.Ж. Нравственные ценности народа и их значение в духовном возрождении Узбекистана. Дисс. кандидат философских наук. – Нукус, 2000.
8. Плеханова Л.М. Лингвостилистические особенности и семантико- функциональный характер лексем, выражающих гуманистические ценности. Дисс. кандидат филологических наук. – Ташкент, 1998.
9. Хусейнова А.А. Общечеловеческие ценности в мировоззрении Абдурахмана Джамии. дис. канд. филос. наук: Ташкент, 1994.
10. Аксакалова Ж.К. Психологический тренинг как фактор развития ценности семьи. Дисс. ... канд. Психол. наук. – Ташкент, 2008.
11. Романюк А.А. Исторические и культурные ценности как объекты гражданско-правовых отношений. Автореферат. канд. юр. наук. – Ташкент, 2015.
12. Tulenov Zh. Philosophy of Values. - Тошкент: Ўзбекистон. 1996. The works of the scientists are presented in the section "List of used literature" of the dissertation.



13. A.A. Kambarov. A socio-philosophical analysis of the transformation of scientific and religious values in Uzbekistan. - Andijan: 2023.

